



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 368 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiray</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY VA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Adizova Nigora Baxtiyorovna
 BuxDPI professori, p.f.d.(DSc)

Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna
 BuxDPI magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning dolzarbligi, ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish hamda ularni uzluksiz rivojlantirib borish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri ekanligi yoritilgan. Tadqiqotda tayanch hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, tayanch hayotiy kompetensiya, kompetentlik, xususiy kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka, kreativlik, kommunikativ kompetensiya, kritik fikrlash.

Abstract: This article examines the relevance of developing key life competencies among students and analyzes the theoretical and practical aspects of organizing the educational process based on a competency-based approach. The study highlights the importance of developing and continuously improving the competencies of both teachers and learners as one of the priority tasks of modern pedagogy. Furthermore, the pedagogical opportunities for fostering key life competencies and their role in enhancing the effectiveness of education are explored.

Key words: competence, key life competence, competency, specific competence, knowledge, skills, abilities, creativity, communicative competence, critical thinking.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность формирования ключевых жизненных компетенций у обучающихся, а также теоретические и практические аспекты организации образовательного процесса на основе компетентностного подхода. Освещаются вопросы формирования компетенций учителей и учащихся, а также необходимость их непрерывного развития как одной из важнейших задач современной педагогики. Раскрыты педагогические возможности развития ключевых жизненных компетенций и их значение в повышении эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: компетенция, ключевая жизненная компетенция, компетентность, частная компетенция, знания, умения, навыки, креативность, коммуникативная компетенция, критическое мышление.

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish uchun dastlab ularda bilish kompetensiyalarini rivojlantirish lozim. Bugungi kunda davlat va jamiyat tashabbuskor, mas'uliyatli, kompetentli, muloqotga kirishuvchan, shaxslararo munosabat o'rnata oladigan yoshlarga kuchli ehtiyoj sezmoqda. Buning uchun o'quvchilarning kompetentligiga qo'yiladigan talablar nafaqat yuqori darajadagi fundamental bilimlarni, balki funksional savodxonlik darajasidagi bilimlarni ham mujassamlashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari talablari doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining umummadaniy, shaxsiy hamda bilish sohalarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Ushbu sohalarning rivojlanishi natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qiy olish, bilimlarni o'zlashtirish kabi tayanch layoqatlari rivojlantiriladi.

Y.A.Romanovanning ta'kidlashicha, boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarda shakllantirishi zarur bo'lgan kompetensiyalarning muayyan turlari mavjud. Ular:

- bilish kompetensiyalari;
- ijtimoiy kompetensiyalar;
- shaxsiy kompetensiyalar.

Ushbu kompetensiyalarni hosil qilish uchun o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetentlikni shakllantirish uchun dastlab ularning bilish faoliyatini rivojlantirishning muhimligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Ular:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajalari bilan ularni amaliyotda qo'llash layoqatlari orasidagi nomutanosiblik;
- davlatning ijtimoiy buyurtmasi bilan ta'lim tizimidagi ziddiyatlarni bartaraf etish imkoniyatlarining yetarli emasligi;
- ta'lim jarayonini takomillashtirish zaruriyati bilan o'quvchilarning umummadaniy, ijtimoiy, bilish sohalarini rivojlantirishni jadallashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda barcha o'quvchilarning birday muvaffaqiyat qozonishlari uchun yetarlicha sharoit yaratilmaganligi;
- yagona ta'lim makonida bosqichlararo uzviylikni ta'minlash zarurligi;
- o'quvchilarning rivojlanish darajalarining oldindan bashorat qilinmasligi hamda ta'lim mazmunining pedagogik-psixologik asoslarni hisobga olmagan holda stixiyali tanlanishi; jumladan, o'quvchilarning maktab hayotiga moslashishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi; bolalarni maktabdagi o'quv jarayoniga tayyorlashning past darajada ekanligi; umumiy o'quv harakatlarining maqsad sari yetarlicha yo'naltirilmaganligi; o'quv jarayonini innovatsion boshqarish imkoniyatlarining to'la ro'yobga chiqarilmaganligi; o'quvchilarni o'qish, bilim olishga jalb qilish instrumentariylarining o'qituvchi tomonidan yetarlicha qo'llanilmasligi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun ularga dastlab tayanch bilimlarning taqdim etilishi; masalan, o'qituvchi o'quvchilarda hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, guruh bo'lib ishlash, turli fikrlarga nisbatan bag'rikenglik, suhbatdoshini tinglay olish va dialog jarayonida o'zini erkin tutish, muammoga nisbatan o'z nuqtayi nazarini aniq bayon qila olish, suhbatdoshining nuqtayi nazarini tahlil qilish kabi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ko'rsatilganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishi sekin amalga oshmoqda. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy quvvatlarning pasayishiga sabab bo'lmoqda.

O'quv-biluv jarayonini takomillashtirish uchun, birinchi navbatda, o'quvchilarning umummadaniy, ijtimoiy hamda bilish sohalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Bu, birinchi navbatda, ta'lim vositalari, yo'llari, usullari va metodlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Ta'lim oldida turgan muammolar va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy qilish o'quv jarayonini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish zaruriyatini qo'ydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetentlikni shakllantirish muammosini samarali yechish uchun boshlang'ich ta'lim jarayonini yangi o'quv bloklari asosida takomillashtirish talab qilinadi. Ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich sinflardayoq tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual quvvatlarini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlantirish bilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun nihoyatda zarur hisoblanadi.

Taniqli mutaxassis V.D.Shadrikov kompetentlikning to'liq shakldagi tizimli talqinini ochib bergan edi. O'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun, birinchi navbatda, ular bilan faoliyatli yondashuv asosida ish olib borish talab qilinadi.

Pedagogika ensiklopediyasida "faoliyatli yondashuv - kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usuli, inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biri. Faoliyat asosida inson mohiyati namoyon bo'ladi, o'quvchiga bilimlarni shu nuqtayi nazardan yondashib bilim, ko'nikma va malakalarni xosil qilishni ifodalaydi" deb ta'kidlangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchisiga kompetentli yondashuv asosida ta'lim berish o'quv jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv shakli hisoblanadi. Bunday yondashuv natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tizimli tarzda bilim, ko'nikma, malaka, layoqatlar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi. Natijada o'quvchilar topshiriqlarni muvaffaqiyatli yechish va o'z bilimlarini amaliy faoliyatlariga tatbiq etish ko'nikmasiga



ega bo'ladilar. Ko'rinib turibdiki, kompetentlilik o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlariga zid bo'lgan ko'rsatkich emas, balki bularning barchasi yagona talabalar tizimini tashkil qiladi.

G.I.Sukermanning ta'kidlashicha, kompetentlilik tushunchasini noaniq vaziyatlarda harakat qilish tushunchasi to'ldiradi. Kompetentlilik bitiruvchi sinf o'quvchilari bilim, ko'nikma va malakalarining shunday sifatiki, u, birinchi navbatda, moslashuvchanlik, ziddiyatlar va noaniqliklarga nisbatan bardoshli bo'lishni ta'minlaydi. O'quvchining kompetentligi topshiriqlarni yechish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish shakli sifatida namoyon bo'la oladi. U bilimlarning o'zlashtirilganligi testlar bilan farqlanadi. O'quvchining kompetentligini aniqlovchi testlar bilim, ko'nikma, malakalarning hajmini baholashga xizmat qilmaydi, balki mazkur bilim, ko'nikma, malakalarni fikr va harakat orqali namoyon bo'lishini ta'minlovchi instrument sifatida xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv kompetentligining tarkibi ta'lim mazmunini o'zlashtirish bilan bog'liq holda asosiy bilish jarayonlarining rivojlanishiga ko'ra ularni egallash usullari yordamida topshiriqlarni mustaqil yechishga tayyorlikdan iborat. Ular: o'quv materiallarini idrok etish, diqqatni bir nuqtaga jamlash, asosiy tushunchalarni xotirada saqlash, voqeliklar, hodisalar ustida fikr yuritish, ular haqida tasavvur hosil qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Uning tarkibida asosan tayanch va o'quv faniga oid kompetensiyalar mujassamlashtadi.

Tayanch kompetentlilikni topshiriqlarni yechishda kompetensiyalarning blok ko'rinishida ifodalanishini anglatadi, o'quv faniga oid kompetentlilik o'qish hamda rivojlanishda o'quvchilarning mustaqil harakatlanishlarida namoyon bo'ladi. Dastlabki tayanch kompetentlilik uchun ko'p funktsionallilik xos bo'lib, mazkur kompetensiyalarning egallanishi o'quvchilarning kundalik hayotiy vaziyatlarda turli muammolar hamda vazifalarni yechishlari uchun imkoniyat yaratadi. Tayanch kompetensiyalar turli vaziyatlarda qo'llash uchun universal va qulay hisoblanadi.

Dastlabki tayanch kompetensiyalar ko'p qirrali bo'lib, ularda o'quvchi shaxsiy tajribasining natijalari o'z ifodasini topadi. Bular shaxslararo munosabat, o'zaro muloqot, bilimlar, ko'nikmalar, ijodda o'z aksini topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetentlilik bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Ularni maktab ta'limining barcha bosqichlarida shakllantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ta'lim-tarbiya natijalari, sifat ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topadi. Ushbu ko'rsatkichlar, indikatorlar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlarida muayyan izchillikda bayon qilingan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagi nazariy konsepsiyalarga tayandik. Ular: rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi, tizimli-faoliyatli yondashuvning tarkibiy qismi sifatida tezkorlik konsepsiyasi, psixodidaktik yondashuv konsepsiyasi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tadqiqotlarimiz davomida kompetensiyalarni shakllantirishda qaysi pedagogik yondashuvlar, usullar, metodlar samarador ekanligini aniqlashga ham harakat qildik. Ma'lumki, G.A.Sukerman o'z tadqiqotlarida uchta pedagogik tizimni o'zaro qiyoslagan. Ular:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish kompetensiyalarini shakllantirishda tayaniladigan metodologik yondashuvlar

1. Muammoli o'qitish.
2. Refleksiyani rivojlantirish.
3. Chizmalar shakliga keltirish.
4. Mustaqil va ijodiy faollik.
5. O'quv materiallarining yuqori murakkablik darajasi.
6. Nazariy bilimlarning yetakchi mavqega egaligi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim

1. Yoshga ko'ra rivojlanishning asosiy psixologik yo'nalishlari.
2. Muloqotning demokratik uslubi.
3. Subyekt-subyekt munosabatlari.
4. O'yin texnologiyalari.
5. O'quvchilar taraqqiyotining indi-vidual strategiyalari shakllanishi.

Psixodidaktik yondashuv

1. Rivojlanish jarayonida layoqatning tezkor mexanizmlarining o'z o'rniga ega bo'lishi.
2. Umumlashgan xarakter kasb etishi.
3. Faoliyat jarayonida shakllanishi.
4. Rivojlanishning funksional mexanizmlarini o'z ichiga olishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish kompetensiyalarini shakllantirishda tayaniladigan yondashuvlar

1. An'anaviy ta'limning modernizatsiyalashtirilgan tizimi.
2. D.B.Elkonin va V.V.Davidov tomonidan taklif etilgan pedagogik tizim.
3. Valdorf pedagogikasi.

Biz ushbu yondashuvdan kelib chiqqan holda kichik tahlillar o'tkazish uchun bir qator topshiriqlarni tanlab oldik. Shunisi xarakterliki, ushbu topshiriqlar an'anaviy pedagogik tizimga xosdir. Bunda tayyor bilimlarni ko'chirishga xizmat qiladigan topshiriqlarga keng o'rin ajratildi. Bu jarayonda an'anaviy reproduktiv metodlar yordamida o'ta murakkab didaktik birliklar o'quvchilarga o'rgatiladi. Topshiriqlarni tanlashda ularni ijtimoiy ahamiyatlilik darajasiga e'tibor qaratilgan. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda ushbu topshiriqlarni yechish o'quvchilar uchun bir qancha murakkabliklarni vujudga keltirdi.

Biz qaysi o'qitish tizimi kompetensiyalarni shakllantirishda samarador, degan savolga javob izladik. Shu maqsadda ikkita topshiriq tanlab olindi. Ushbu topshiriqlar asosida o'quvchilarning matematik savodxonlik darajasini aniqlash nazarda tutilgan edi. Biz bunday topshiriqlarni bosqichma-bosqich ko'paytirib borganimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy, matematik bilimdonliklari va hisoblash ko'nikmalarining jadal rivojlanayotganligiga guvoh bo'ldik. Chunki ushbu topshiriqlar shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim prinsiplari asosida shakllantirildi. Ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda o'zlari egallagan bilimlarni qo'llash, amalda sinab ko'rish ko'nikmalari an'anaviy ta'lim jarayonida yetarlicha rivojlanmay qolib kelmoqda.

Rivojlantiruvchi hamda evristik xarakterdagi topshiriqlar o'quvchilarning tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarini jadal o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish kompetensiyalarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun rivojlantiruvchi hamda evristik xarakterdagi mashq va masalalardan tizimli tarzda foydalanish lozim.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning maqsadi o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat. Bunda o'quvchilarning aqliy, irodaviy rivojlanishlarini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu esa ularda bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning ishonchli qat'iy hisoblanadi. Ta'lim sinfdagi barcha o'quvchilarga emas, balki har bir o'quvchiga yo'naltirilishi kerak. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'ziga qadriyat sifatida yondashish munosabati shakllantirilishi lozim. Shu maqsadda o'qituvchilar har bir o'quvchining o'ziga xos jihatlarini aniqlashlari va ularni rivojlantirishga xizmat qiladigan qulay pedagogik vaziyatlarni tashkil eta olishlari kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini to'liq his eta olishi va ularga bir xilda yondashishi lozim.

Ushbu tizimning yangi didaktik prinsiplari yuqori darajada murakkablikdagi o'quv materiallarini tez o'zlashtirish, nazariy bilimlarning yetakchilik mavqeiga e'tibor qaratish bilan izohlanadi. Tushunchalarning mohiyatini anglash tizimli munosabatlar asosida amalga oshadi. Bunda o'quv materiallarining mazmuni boy, o'quvchilar faoliyatining rang-barangligini ta'minlashga qodirligiga e'tibor qaratish lozim. Maktabdagi asosiy o'quv predmetlarining mazmunini muntazam boyitish nazarda tutiladi. Bunday o'quv predmetlari sirasiga Matematika, O'qish, Ona tili va Atrofimizdagi olam o'quv predmetlarini kiritish mumkin. Tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni hosil qilishda asosiy o'rinni o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish yo'lidagi mustaqil faoliyatlariga e'tibor qaratish egallaydi.

Bunda asosiy e'tiborni o'quvchining o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga qaratish talab etiladi. Buning uchun yuqori maromda ishlashga tayyorlik, refleksiya layoqatlilik, axborotlarni mustaqil izlash va o'zlashtirish, qo'yilgan masalalarning yechimiga ijodiy yondashishga tayyorlikni ta'minlash taqozo qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiq etilayotgan muammoning yechimini topish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayotiy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayon modeli ishlab chiqildi.

O'quvchining refleksiya layoqatliliqi quyidagilar orqali namoyan bo'ladi.



Ular:

- o'zi bilmagan bilimlarga ega bo'lish, noma'lumdan ma'lumni ajratish ko'nikmasining namoyon bo'lishi;
- noma'lum vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilish uchun qanday bilim va ko'nikmalar yetishmasligini anglash layoqatiga ega bo'lish;
- o'z xatti-harakatlari va mavqeini chetdan turib kuzatish hamda baholash; bunda o'zining nuqtayi nazari yagona emasligini anglab yetish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- atrofdagilar, sinfdoshlarining xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- mazmunli tahlil qilish va baholash layoqatini rivojlantirish kabilar.

Shu asosda o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni anglash, o'quv mustaqilligi va tashabbuskorligi shakllantiriladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida noodatiy, chuqur fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini loyihalashga oid yondashuvlarning asoschisi taniqli psixolog V.V.Davidov hisoblanadi. U o'z ishlarida an'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda empirik tafakkurni shakllantirish jarayoni loyihalashtirilishini ko'rsatib o'tgan edi. Bunday loyihalashning nazariy-metodolog asosini formal mantiq hamda amaliy fikrlash tashkil etadi. Loyiha – reja, mo'ljal, g'oya. Masalan, dars loyihasi o'quvchilarning tayanch hayotiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv materiallari loyixasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda muayyan metodlar va texnologiyalardan foydalanildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari tadqiqotda ilgari surilgan g'oyaning to'g'riligini asoslash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.
2. Abdullayeva B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tayyorlagiliginig mazmuni / Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Jizzax, 2019-yil – 6-b.
3. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.
4. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.